Mavzu: «Konstitutsiya – hayotimiz qomusi» dars ishlanmasi

Dars shiori:

«Har qanday davlatning yuzi, obro`- e'tibori uning Konstitusiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir»
I.Karimov

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: — o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yaratilishi, hayotimizdagi tutgan o'rni, uning moddalarini mazmuni haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: — o'quvchilarda eng yaxshi axloqiy sifatlarni, mustaqil fiklash, olgan bilimini hayot bilan bog'lashi,Vatanni sevishi, insonlarni hurmat qilishni, estetik didni tarkib toptirishni tarbiyalash. Vataniga sodiq farzand bo'lish tarbiyalarini berish.

Rivojlantiruvchi: — o'quvchilarning ilmiy,mustaqil, ijodiy fiklash qobiliyatlarini rivojlantirish.

DTS talabi: Asosiy qonunimiz haqida bilish.

Dars tipi: bayram dars.
Dars turi: noan'anaviy.
Dars o`tish metodi: Aqliy hujum, aralash, interfaol.
Dars jihozi: kompyuter, proektor, ko'rgazmalar, slaydlar, qo'shimcha adabiyotlar, internet tarmog'i, gullar, shiorlar, multimedia vositalari.

Darsning blok chizmasi

№	Dars bosqichlari	Vaqt	Usullar
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa	
2	O'tilganlarni takrorlash	7 daqiqa	Savol-javob, klasster, test
3	Yangi mavzu ustida ishlash	17 daqiqa	Ma'ruza, aqliy xujum
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa	Klasster, blits-savol, test
5	Yangi vazifa	3 daqiqa	

Darsning borishi:

Reja:

1. Vatanimni kuylayman
2. " Adolat O'zbekovna " tashrifi
3. Qaysi moddalarni bilasiz
4. Shu aziz Vatan – barchamizniki
5. Mustahkamlash va vazifa

I. Tashkiliy qism

1) salomlashish; 2) davomatni aniqlash. 3) sinf jurnalini to`ldirish 4) sinfxona tozaligi tekshiriladi, 5) o'quvchilar guruhlarga ajratiladi.

1.VATAN
2.TABIAT
3.ONA

(o'quvchilar o'z guruhlar nomini izohlaydilar)

II. Takrorlash

O'tilgan mavzuni so'rash va takrorlash o;qituvchi tomonidan "Aqliy hujum" usuli orqali so'raladi;

1-guruhga: Yurtimiz qo'shiqchilik san'ati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2-guruhga: "Siz qanday qoshiqlarni sevib tinglaysiz?"
3-guruhga: Qo'shiq va musiqa tinglash odobi haqida gapiring

O’tilgan mavzu yuzasidan “zanjir” o’yinida o’zbek musiqa va qo’shiqchilik san’atini rivolantirishda katta xissa qo’shgan kompozitorlari sanaladi.

Masalan: Yunus Rajabiy, To’xtasin Jalilov, G’anijon Toshmatov, Mutal Burxonov, Avaz Mansurov…


III. Yangi mavzu bayoni:

Konstitutsiya - lotincha “konstitution”, “tuzilish”, “tartib” so’zlaridan olingan bo’lib, “belgilayman”, “Tasdiqlayman” degan ma’nolarni bildiradi.

O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. U 6 bo’lim, 26 bob 128 ta moddadan iborat.

1992-yildan beri bu kun respublikamiz siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan kun sifatida qaralib kelinmoqda. Shu o‘rinda tarixga bir nazar tashlasak: O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasini yaratish haqidagi ilk g‘oya Respublikamizning 1990-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. Oliy Kengashning 1990-yil 20-iyunda e’lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi” mamlakatimiz yangi konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo‘ldi, 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzuldi. Shunday qilib konstitutsiya loyihasining birinchi nusxasi 1991-yilning uchinchi choragida tayyorlab bo‘lindi. U muqaddima, 6 bo‘lim va 158 moddadan iborat bo‘ldi. Mukammallik darajasidan anchayin uzoq bo‘lgan konstitutsiya mustaqillikka erishilgandan so‘ng qayta ko‘rilib, 1992-yil bahorda uning 149 moddani o‘z ichiga olgan ikkinchi nusxasi tayyorlandi. Bir qancha muhokamalardan so‘ng konstitutsiyaning uchinchi nusxasi ham ishlab chiqildi. Shu yili konstitutsiya xalq muhokamasi uchun bir necha bor matbuotda e’lon qilindi. Taklif va tavsiyalar, xatlar ko‘rib chiqilib konstitutsiyaning mukammal varianti ishlab chiqildi.

Davlatning itimoiy va siyosiy tizimini belgilaydi:



IV. Mavzuni mustahkamlash:

“”Ona, “Tabiat”, “Vatan” guruhlari konstitutsiyamizdagi huquq va burchlar, erkinliklarga oid sahna korinishlari ijro etadilar.

Rasmlar orqali qanday huquqlar bayon etilganligi soraladi.

She’rdagi huquq va burchlaringizni toping.

Shu dala-qir, shu bo’ston
Shu kitobing, shu doston
Shu oromgoh- tog’ bag’ri
Soya salqin bog’ bag’ri
Senga boqqan har chechak
Bugun, erta,kelajak
Bari- bari seniki!
Qonun bilan seniki!
Bolam, shuni uqib ol
Barini sev, sodiq qol.

Sherda atrof- muhitni asrash burchi, dam olish va bilim olish huquqlari bayon etilgan.

Guruhlar, darsda faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

V. Uyga vazifa: “Baxt qomusi” sherini yod olish.

www.idum.uz

Телеграмда @talim_obrazovaniye **«Таълим / Образование»** канали - ўқитувчилар учун хужжатлар, дарс ишланмалар, тестлар, тарқатма материаллар